

O‘RMON XO‘JALIGI YERLARIDA DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISHNI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Abraxmatov Himoyiddin Umbarqulovich
ToshDAU, magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘rmon xo‘jaligi yerlarida dorivor o‘simliklarni yetishtirishni iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asoslari va qilinayotgan ishlar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlari: Dorivor o‘simliklar, yetishtirish texnologiyasi, o‘rmon, samaradorlik, aholi.

Abstract. This article provides information on the theoretical basis of increasing the economic efficiency of the cultivation of medicinal plants on forestry lands and the ongoing work.

Key words: Medicinal plants, cultivation technology, forest, productivity, population.

Аннотация. В данной статье представлена информация о теоретических основах повышения экономической эффективности выращивания лекарственных растений на землях лесного фонда и проводимых работах.

Ключевые слова: Лекарственные растения, технология возделывания, лес, продуктивность, популяция.

Zamonaviy dunyoda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan qiziqishni oshirish tendentsiyasi mavjud, ya’ni ularning inson organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish qobiliyati. Aholining miqdoriy o‘sishi, kasalliklar-ning profilaktik diagnostikasi sifatining yaxshilanishi, dorivor o‘simliklar o‘sishining tabiiy maydonlarining qisqarishi dorivor o‘simlik xom ashyosiga bo‘lgan talabni doimiy ravishda oshirib borish tendentsiyasi-ga olib keldi. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda 60,0% dan ortiq dori vositalari tarkibida (ma’lum dara-jada) o‘simlik komponentlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida ham farmatsevtika sanoatining jadal rivojlanishi dorivor o‘simliklar xom-ashyosiga bo‘lgan talabni keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Ta’kidlash joizki, respublikamizda tabiiy holda o‘sadigan dorivor o‘simliklar zaxiralarining chegaralanganligi tufayli farmatsevtika sanoati korxonalarining dorivor o‘simliklar xom-ashyosiga bo‘lgan talabini, asosan, dorivor o‘simliklar yetishtirish orqaligina qondirish mumkin

Jamiyat va iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uning muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim ob’ektiv muammolarni hal etishga bog‘liqdir. SHu nuqtai nazardan, qishloq va o‘rmon xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi, jamiyat va iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida esa, eng muhim ishlab chiqarish vositasi, takror ishlab chiqarilmaydigan va o‘rni almashtirilmaydigan er resurslaridan foydalanish – har qanday milliy iqtisodiyot yaxlit tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatni rivojlantirish, ayniqsa muayyan islohotlarni amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash o‘z navbatida

yerdan foydalanish iqtisodiyotining o'ziga xos masalalarini o'rganish va bilishga ob'ektiv bog'liqdir. Shu bois yurtimizda ham tizimli ishlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 23 avgustdagi «Respublikada o'rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, 2020 yil 1 yanvardan boshlab o'rmon fondining o'rmon bilan qoplanmagan yerlarini ijaraga berish tizimi yo'lga qo'yilgan edi. Shunga ko'ra, 2020 yilning yanvar – sentyabr oylarida 29 ming gektardan ortiq yer maydoni 1561 ta jismoniy va yuridik shaxslarga investitsiya kiritish va yangi ish o'rinlari yaratish sharti bilan 49 yil muddatga ijaraga berildi.

“O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Prezident qarori bilan esa o'rmon fondi erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va bu faoliyat bilan shug'ullanuvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2020-2022 yillarda o'rmon fondi yerlarini ijaraga olgan ijarachilarga faoliyat yo'nalishiga qarab 1 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatda ijara to'lovining “nol” stavkasini qo'llash tizimi yo'lga qo'yildi.

Respublikada so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o'simliklarning 750 turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan, shundan 70 turi farmatsevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda.

2019 yilda 48 million AQSH dollari qiymatidagi qayta ishlangan dorivor o'simliklardan olingan mahsulotlar eksport qilingan.

Shu bilan birga, tahlillar dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, ularning plantatsiyalarini tashkil etish, qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash maqsadida.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining 2020 yil 1 maydan boshlab dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlarini (keyingi o'rinlarda – dorivor o'simliklar klasteri) tashkil etish, shuningdek, hududlarni dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha ixtisoslashtirish to'g'risidagi takliflari tegishli qarorlar bilan mustahkamlandi.

Quyidagilar dorivor o'simliklar klasterining asosiy vazifalari etib belgilansin:

Dorivor o'simlik yetishtiruvchilar bilan yetishtirilgan mahsulotni xarid qilish bo'yicha shartnomalar tuzish, ularni urug'lik, mineral o'g'itlar, texnika, yoqilg'i va boshqa vositalar bilan ta'minlash;

Ixtisoslashtirilgan hududlarda dorivor o‘simliklarni yetishtirish, urug‘liklar va ko‘chatlar tayyorlash, bosqichma-bosqich zamonaviy dorivor o‘simliklar plantatsiyalari tashkil etish;

Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va urug‘chiligini tashkil etishda ilg‘or ilmfan yutuqlarini qo‘llash;

Dorivor o‘simliklar yetishtirish va ularni qayta ishlash bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro faol hamkorlik qilish va sohaga bosqichma-bosqich innovatsion yechimlar (nou-xau) joriy etish;

Dorivor o‘simliklar yetishtirish va ularni qayta ishlashga xorijiy kompaniyalarning investitsiyalari hamda ilg‘or texnologiyalarini jalb qilish;

Dorivor o‘simliklar va ulardan olinadigan mahsulotlarga bo‘lgan ichki bozor talabini qondirish hamda ularni eksport qilish;

Tajriba va ma‘lumotlarning doimiy almashinuvini tashkil etish orqali ushbu yo‘nalishdagi xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xalqaro tadqiqot dasturlari, anjumanlar va simpoziumlarda ishtirok etish.

Hammamizga ma‘lumki, bugungi kunda dunyo davlatlarida “aholi salomatligi” siyosatdagi eng muhim masalalardan biriga aylanganligi shifobaxsh va dori vositalar ishlab chiqarish hajmlari va turlarini ko‘paytirishni taqazo etmoqda. Bu o‘z navbatida, sohaning har bir bosqichida ishtirok etayotganlarning o‘zaro hamkorligini talab etadi. So‘nggi yillarda boshqa tarmoqlar bilan bir qatorda dorivor o‘simliklar urug‘chiligini tashkil etish, yetishtirish, qayta ishlash hamda sohada ilm-fanni rivojlantirishga doir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari qabul qilinishi ushbu sohani rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 26 noyabrda PQ-4901-son qaroriga ko‘ra O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi tuzilmasida “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ilmiy-ishlab chiqarish markazi” tashkil etildi va Markaz faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan dorivor o‘simliklar xom ashyolarini qayta ishlash va eksport qilish bo‘yicha dorivor o‘simliklarni yetishtirish va ilmiy-ishlab chiqarish klasterlari tashkil etilib faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Joriy yilda tashqi va ichki bozor talablarini o‘rganish natijalariga ko‘ra, 64 turdagi dorivor o‘simliklarni 5000 gektar maydonda plantatsiyalari tashkil etildi va 8000 tonna mahsulot yetishtirildi.

Dorivor o‘simliklar urug‘lik materiallarini yetishtirish va tayyorlash, ko‘paytirish maqsadida Quyichirchiq ixtisoslashtirilgan davlat o‘rmon xo‘jaligida 8 ta (lavanda, rozmarin, mavrak, timyan, godji va boshq) noyob turdagi dorivor o‘simliklarining onalik plantatsiyalari barpo etildi va tizimdagi o‘rmon xo‘jaliklari

tomonidan 191,1 gektar maydonda 8 turdagi noyob dorivor o‘simliklarning tajriba plantasiyalari barpo etildi.



Dorivor o‘simliklar xomashyosini tayyorlashda madaniy holda yetishtirilgan dorivor o‘simliklar xomashyosi hajmi yovvoyi holda o‘sadigan o‘simliklardan tayyorlanadigan xomashyo hajmiga nisbatan salmog‘i yil sayin oshib borishi kuzatilmoqda.

Jumladan, 2018 yilda madaniy holda yetishtirilgan dorivor o‘simliklar xomashyosi hajmi umumiy tayyorlangan dorivor mahsulotlar miqdorida 62 foizni, 2019 yilda esa 81 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2020 yilda esa bu ko‘rsatgich 86 foizni tashkil etmoqda.

Aytish joizki, sohaning rivojlanib borishi barobarada aholining tabiiy dori vositalariga qiziqishlari va iste‘moli ko‘payib, xabardorligi ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ёввойи ҳолда ўсувчи доривор ўсимликларни муҳофаза қилиш, маданий ҳолда етиштириш, қайта ишлаш ва мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 10 апрелдаги ПҚ-4670- сонли Қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикаси Ўрмон хўжалиги давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги 2017 йил 11 майдаги ПҚ-2966-сон қарори.
3. Эргашев Р.Х. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти – (дарслик), - Т.: “Иқтисод молия” 2018, 402 б.
4. Тўхтаев Б.Ё., Махкамов Е.Х. ва бошқалар. Доривор ва озуқабоп ўсимликлар плантацияларини ташкил этиш ва хом ашёсини тайёрлаш- (йўриқнома), - Т.: 2015 йил.
5. Саттаров Ж.С. Биоразнообразие и ресурсы дикорастущих лекарственных растений в некоторых районах Центрального Таджикистана- (диссертация “доктор наук”) 2020 г.

6. Почупайло О.Е. Государственная поддержка предпринимательской деятельности в сфере производства лекарственного растительного сырья (на примере Республики Крым) - (автореферат) - “Симферополь” 2019 г.
7. Эргашев Р.Х. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти – (дарслик), - Т.: “Иқтисод молия” 2018, 402 б.

Internet saytlari

8. <https://givoyles.ru>
9. <http://lex.uz>
10. www.wikipedia.org
11. <http://scholar.google.com>
12. www.scopus.com
13. www.elibrary.ru